

## OILA VA XOTIN QIZLARNI QO'LLAB QUVVATLASH

*Yo'ldosheva Marjona Radjabovna*

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand*

*filiali 1-bosqich talabasi*

*E-MAIL: marjona.yoldosheva.95@mail.ru*

**Annotatsiya:** Maqola yangi O'zbekistonda oila va xotin qizlarga munosabat, ularning jamiyatdagi ravnaqiga o'z o'rniga egaliklari, xotin qizlarga berilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar va ularni qo'llab quvvatlash haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Xotin qizlar, Ayollar daftari, Farmon, E'zozlash, Imkoniyat, Davlat siyosati.

Yurtimizda xotin qizlarning davlatni boshqarish, talim tarbiya ishlari, tadbirkorlikda faol ishtirok etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Mustaqillik yillarda mamlakatimizda ko'plab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshdan kechirdi. Milliy qadriyatlarimiz asta sekin o'z o'rniga qaytdi. SHu davrlarda davlatda ayollarga bo'lgan sharqona qarash, urf-odatlar ham o'z o'rniga qo'yila boshlandi. Ularning o'z erki qisman bo'lsada o'zliklariga qaytarildi. Endi ular ham jamiyatga manfaatli ishlarda o'z hissalarini qo'sha boshladilar. Fikrimizning yorqin tasdig'ini birinchi prezidentimiz, Islom Karimovning mamlakat xotin qizlariga nisbatan munosabatida ham ko'rish mumkin.

Xususan, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab quvvatlash, shuningdek oila institutini shakllantirish va mustahkamlash borasida yurtimizda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyevning quyidagi so'zlaridan bilishimiz mumkin.

Barchamiz uchun aziz va mo'tabar bo'lgan ayol zoti haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalambor bizni dunyoga keltirgan, oq sut berib voyaga yetkazgan Ona siymosi oldida bosh egib ta'zim qilamiz. Yer yuzida muqaddas degan so'zga eng munosib zot bu- avvalo Onadir. Xalqimiz ona siymosini doimo ulug'lab, ardoqlab yashaydi. Yurtimizda onalarni sharaflab haykallar bunyod etilgani ham shundan dalolat beradi. Xotin qizlarga e'tibor hamma vaqt barcha say-harakatlarimiz markazida bo'lishi hammamizning vazifamizga aylanmog'i kerak dedi davlatimiz rahbari. Oilaga e'tibor asli bu o'zligimizga e'tibor demakdir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ayollar huquqlariga inson huquqlarining alohida ajralmas qismi sifatida qarala boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida xotin qizlar va erkaklar teng huquqlidir deya takidlanishi-huquqiy kafolati belgilanganidan dalolat beradi. " 1995-yili xotin qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish " to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilishi ham

mamlakatimizda xotin qizlar masalasiga e'tibor berilganligidan dalolat beradi. 1995-yil mart oyida Prezidentning " O'zbekiston Respublikasining davlat va ijtimoiy qurilishda xotin qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi farmoni e'lon qilinadi. Yana shu bilan birga ayolni yanada ulug'lash va ularga imkoniyat yaratish maqsadida 1999-yil birinchi Prezidentimiz I.Karimov tomonidan ta'sis etilgan "Zulfiya" nomidagi davlat mukofotiga ham ko'plab xotin qizlarning jalb etilishi e'tirofga loyiqdir.

Yurtboshimiz SHavkat Mirziyoyevning ayollarga nisbatan hurmat va e'tiborni har qadamda kuzatish mumkin. Prezidentimiz xotin qizlarni har tomonlama qo'llab quvvatlamoqda. Ularga ko'plab imtiyozlar yaratib berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87 son Farmoniga ko'ra O'zbekiston 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalar doirasida ustuvor maqsadlardan biri sifatida "Gender" tenglikni ta'minlash va barcha xotin qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish belgilangan.

Ayol kishi uyda asosan farzandlar tarbiyasiga vaqtini o'tkazadi va o'z navbatida farzandlariga ta'lim yoki ma'naviy jihatdan ozuqa berolmaganliklarini kuzatishlarimiz mobaynida bunga amin bo'lganmiz. Jinsiylikga qarshi kurash BMT ning " Xotin qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham bertish to'g'risidagi konvensiyada e'lon qilindi.

Oila – bu Vatanning bir bo'lagidir. Jamiyatimizda xotin qizlarni qo'llab quvvatlash va salomatligini mustahkamlashga ma'nau va ruhan iqtidorli bo'lishlariga ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda barchamiz birdek ma'suliyatli bo'lishimiz kerak deb o'ylayman. Maqsadimiz xotin qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalari munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish va tadbirkor ayollarni qo'llab quvvatlasak jamiyatimizga, yurtimizga foydasi tegadigan xotin qizlar yurtning g'ururi faxridir. Jamiyatimizga ayniqsa xotin qizlarga ko'satiladigan tibbiy ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini oshirish, ayniqsa homilador ayollarga sog'lom turmush sifatini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish joiz. Turar joyga ehtiyojmand muhtoj xotin qizlarni ta'minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilashga e'tibor qaratish, daromadlarini ko'paytirishga hissa qo'shsak, oila tinch-totuv yashaydi. Kamchiliklarsiz oila buzilmaydi. Hozirgi paytda oilaning buzilishdagi asosiy sabablaridan biri bu-yetishmovchilik. Yetishmovchilik sababli ayollar o'zlarini boshqa davlatga ishlashga, o'zlarini qul bo'lib sotilishga ham majbur bo'lishadi. Xotin qizlarning oilalarini mustahkamlashga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini asrab avaylashga hamda ularning farzand tarbiyasidagi rolini oshirishga barchamiz birdek ma'sul bo'lsak, qo'llab quvvatlasak, jamiyatimizga kelajagimiz davomchilari bo'lmish farzandlarimizga ham ibrat bo'ladi. Xotin qizlarning muammolari va

qiziqishlarini, ehtiyojmand oilalarni mahalla faollari tomonidan o'rganilib, kerak bo'lsa uyma-uy yurib o'rganish, iqtidorli, bilimli xotin qizlarni faoliyatini oshirishni nazoratga olishlikni ta'milash lozim. Oila va xotin qizlarga ijtimoiy va ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosarlarning ayollar bilan ishlash ko'nikmasi borasidagi faoliyatini samarali tashkil etilishi kerak.

Hozirgi paytda Yangi O'zbekistonda Prezidentimiz farmonlariga ko'ra xotin qizlarni har tomonlama qo'llab quvvatlashga doir chora tadbirlar ko'rilmoqda. SHu jumladan sog'liqni saqlash, ayollar sportini rivojlantirish mehnat va o'qish shart-sharoitlarini yaxshilashga alohida e'tibor berilmoqda. SHu jumaladan, xotin qizlarga ajratilayotgan foizsiz kreditlar, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun imtiyozli kreditlar, temir daftar ya'ni ayollar daftariga kiritilgan yolg'iz, qaramig'ida nogironligi bo'lgan ayollarga e'tibor qaratilayotganligi va h.z shular jumlasidandir.

Oilaning muayyan bo'g'ini bo'lmish xotin va qizlarimizni zo'ravonlikdan, oiladagi haq-huquqlarining buzilishiga yo'l qo'ymaslik hamda o'z joniga qasd qilishidan asrashimiz zarur, chunki yurt kelajagi davomchilari vorislari xotin qizlarimizga bog'liq. Ayol-ham ona, ayol-ham rafika, ayol-ham qiz, ayol-ham singil, ayol-ham opa. Qizlarimizni ta'lim tarbiyasiga, ularning bilimiga va iqtidoriga ahamiyat bersak, jamiyatda, oiladagi o'rni haq-huquqi buzilmaydi.

Yangi O'zbekiston kundan - kunga taraqqiyot sari olg'a bormoqda. Muhtaram Prezidentimizning say- harakatlari zoye ketmasligi uchun barchamiz yurtimizning taraqqiyotiga harakat qilmog'imiz, xotin qizlarning tadbirkorligi uchun ularni har tomonlama, har jabhada, oilada, ta'lim olishda, farzandlarimiz tarbiyasida, sog'lom turmush tarziga moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlamog'imiz zarur. Oiladagi muhitni, ta'lim tarbiyani ya'ni yurtimiz vorislari davomchilari, farzand tarbiyasiga asosan ayollarimiz mas'uldirlar. SHuning uchun ularning ta'lim sohasidagi Prezidentimiz farmonlariga asosan foizsiz kreditlar ajratilayotganligi, xotin qizlarning o'qishlari, ta'lim olishlari, Yangi O'zbekistonga yurtimizning farovonligi sari yo'l ochilmoqda. Bundan ko'plab xotin qizlarimiz oliy ma'lumotli bo'lib bundan mamnun, xursand bo'lishmoqda va o'z kasbu-korlariga ishlamoqda. Bundan ancha oilalar ya'ni kam ta'minlangan, uyda o'tirib qolgan ayollarga ancha yordam madad bo'ldi.

Birlashib mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga- hammamiz birdek mas'ulmiz. Xotin qizlarimizni qo'llab quvvatlashda jamiyat taraqqiyotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish tadbirlari – Yangi O'zbekistonimizning eng asosiy maqsadiga aylanmoqda. Xotin qizlarga moddiy yordam ko'rsatish, oilaviy va xususiy tadbirkorlik, hunarmandchilikni tashkil etishda bilim va ko'nikmalarni egallashda ularga ko'maklashish va rag'batlantirish oiladagi kattalarning va turmush o'rtog'ining mas'uliyatidir. Xotin qizlarimiz masalasi insoniyat kelajagiga daxldor mavzu bo'lganligi bois barchamiz bu mavzuga befarq, loqayd bo'lmasligimiz lozim.

Xotin qizlarning huquq va manfaatlarini ta'milash, oila institutini har tomonlama mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati ham muhtaram Prezidentimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. Ayollarni qo'llab quvvatlash, huquq va erkinliklarini ta'minlash borasidagi ishlar tufayli ular jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lmoqda. Xotin qizlar huquqlarini ta'minlash, ularni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish borasidagi ko'plab hujjatlar qabul qilingan va ko'plab chora tadbirlar ko'rilgan bo'lsada kamchiliklari mavjudligiga e'tibor qaratishimiz lozim. Yangi O'zbekiston oilalari, xotin qizlari yurtimizga munosib farovon oilalar bo'lishadi.

Albatta. Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonimizga muhtaram Prezidentimizning – farmonlari va tashabbuskorliklariga binoan ko'plab xotin qizlarimiz kasbu – koriga ega bo'lishlariga, ta'lim olishlarida, oilada o'z haq-huquqlariga, tadbirkorlik bilan shug'ullanishga, mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolliklarini namoyon etishmoqda. SHu jumladan, farzand tarbiyasi bilan band bo'lgan ayollar uchun masofaviy o'qishga sharoit yaratib berish ham yo'lga qo'yilmoqda. Xotin qizlarga berilayotgan imkoniyatlar, foizsiz kreditlar, yosh bolali ayollarga imtiyozlar-biz yosh bolali ayollarni muvafaqiyatlar sari olib bormoqda. Muhtaram Prezidentimizni bizdan ayirmasin, sog'-salomat bo'lib biz xotin qizlarga bosh bo'lib, bizni qo'llab quvvatlashni davom etsinlar. Albatta xotin qizlarni qo'llab quvvatlash uchun shuncha o'zgarish va shuncha imtiyoz berilishi barchimizni quvontirgani rost. Muhimi, bularning barchasi ayollarni rozi qilish, shu orqali oilalaridagi muhitni yaxshilash ko'zda tutilgan jamiyatning taraqqiy etishi ham ayni shu ko'zlangan maqsadga bevosita bog'liqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF 87-son Farmoni.
- 2) [HTTPS://lex.uz/docs/4494849](https://lex.uz/docs/4494849) “Xotin qizlar teng huquq kafolatlari” to'g'risidagi O'RQ-562.02.09.2019
- 3) [HTTPS://review.uz/translate.google/uz/post/](https://review.uz/translate.google/uz/post/) O'zbekistonda ayollarga oid imtiyozlar.